

FRAGMENTATSIYA ADABIY HODISA SIFATIDA

Bafoyeva Roxila Valijonovna

Ilmiy rahbar. Osiyo xalqaro universiteti
“Xorijiy til va ijtimoiy fanlar” kafedrası assistent o‘qituvchisi.

Bekturdiyeva Aziza

Izlanuvchi.
Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18392180>

Annotatsiya. Ushbu ishda fragmentatsiya, uning kelib chiqishi, nazariy asoslari misollar bilan yoritilgan. Fragmentatsiya adabiy janrnig an’anaviyligidan voz kechib parcha-parcha tuzilma, uzilishli syujet, ko‘p qatlamli vaqt va makon tasviri orqali ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Tadqiqotda fragmentatsiyaning paydo bo‘lish sabablari, ahamiyati, uning modernizm va postmodernizm oqimlari bilan aloqadorligi hamda muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatga ta’siri yoritiladi.

Shuningdek, bunday asar badiiy tafakkur, ong oqimi, mustaqil idrok va voqelikning o‘zgacha xulosalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Tezis fragmentatsiyani nafaqat shakliy usul, balki davr ruhini aks ettiruvchi adabiy hodisa sifatida baholashga qaratilgan. Ushbu ishda fragmentatsiyaning paydo bo‘lish sabablari, uning modernizm va postmodernizm oqimlari bilan aloqadorligi hamda muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatga ta’siri yoritiladi. Shu nuqtai nazardan fragmentatsiya modernizm va postmodernizm adabiyotiga xos bo‘lgan badiiy usul sifatida tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Fragmentatsiya, Adabiyot, Postmodernizm, Modernizm, Jamiyat.

Kirish: Fragmentatsiya ko‘plab o‘rganilgan postmodern adabiy asarlarda uchraydigan asosiy unsurlardan biridir. Postmodernizm tushunchasiga “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan adabiyot va san’atda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarida kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod.” Fragmentatsiya 20 asrlardagi adabiy usul hisoblanadi. fragmentatsiya atamasini tushunishdan oldin postmodernizm atamasini tushunib olishimiz kerak.

“Postmodernizm” tushunchasiga modernizmga qarshi ishlab chiqilgan tartib va g‘oyalar shakli sifatida qaraladi. Postmodernistlar uchun dastlab asosida modernizm yotadigan falsafa tanqid nishoniga aylangan Nitsshe va Xaydegger ta’limotlari esa postmodernizmning ilk uchqunlariga asos bo‘lgan.

Fragmentatsiya ketma ketligi aralash bo‘lgan hikoya va janrlar qorishmasidir. Fragmentatsiya obraz va metaforalardan foydalanish orqali postmodern adabiyotning noaniq va murakkab realliklarni tasvirlaydi hamda beqaror dunyo holatini aks ettiradi.

Postmodern adabiyot modernist adabiyot bilan ko‘plab o‘xshashliklarga ega, chunki har ikkala oqim ham zamonaviy dunyo va undagi ma’no yo‘qolishining holatini tasvirlaydi. Biroq postmodern adabiyotni modernizmdan ajratib turadigan jihat shundaki, u bu holatlarga nisbatan yanada optimistik va erkin munosabatda bo‘ladi.

Asosiy qism. Fragmentatsiya adabiy usul sifatida XX asr boshlariga borib taqaladi.

Fragmentatsiya usuli postmodernizmning muhim jihati hisoblanadi. Bu soʻz lotin tilidan kirib kelgan boʻlib, “fragmentatio”-boʻlinish, parchalanish) — bu yaxlit bir narsaning alohida qismlarga yoki boʻlaklarga boʻlinib ketish jarayoni maʼnosini bildiradi. Fragmentatsiyaga uchragan asarlarda voqealar tartibsiz holda beriladi hech qanday asosiy qoidalarga boʻysunmasdan, yozuvchi mustaqil ravishda ijod qiladi.

Oʻquvchi hikoyaning mazmunini uning ketma-ketligini, tarkibiy qismlarini bir biri bilan bogʻlash orqali tushunadi. Bu oʻquvchiga biroz qiyinchilik tugʻdirsa ham tanqidiy fikrlash va diqqatni rivojlantirishga yordam beradi. Yozuvchiga ananviy hikoya tuzilmalariga qarshi chiqish va yangi hikoyalash shakllari bilan tajriba qilish imkonini beradi. Bunga misol sifatida Togʻay Murodning *"Otamdan qolgan dalalar"* asarini keltirishimiz mumkin.

Asarda fragmentatsiya asosan qahramonning ruhiyatidagi, oilaviy munosabatlaridagi zamonaviy hayot va anʼanalar qarama-qarshiligidagi parchalanish obrazida koʻrinadi, bu orqali insonning oʻzligini yoʻqotishi va qadriyatlarning buzilishi ijtimoiy muammolar orqali ochib beriladi. Richard Brautigan va Donald Barthelmening hikoyalari ham fragmentatsiya bilan ajralib turadi. Fragmentatsiya matnni boʻshliqlar, sarlavhalar, raqamlar yoki belgilar orqali ajratilgan qisqa boʻlaklarga ajratishni ham oʻz ichiga oladi.

Reymond Federman *Surfiction: "Fiction Now and Tomorrow"* asariga yozgan kirish qismida shunday deydi: *“Yozishga hech narsa yoʻq boʻlgan boʻshliqlarda yozuvchi istalgan paytda hikoyaga mutlaqo aloqasi boʻlmagan materiallarni kiritishi mumkin.”* Kurt Vonnegutning *Slaughterhouse-Five* asari esa butunlay fragmentatsiya haqida boʻlib, uning bosh qahramoni vaqt boʻylab sayohat qiladi. Bu fragmentatsiya Vonnegutga vaqt va makon bilan erkin oʻynash imkonini berish bilan birga, romanning bosh qahramoni boshdan kechiradigan psixologik parchalanganlik holatini ham aks ettiradi.

Xulosa Yozuvchilar zamonaviy dunyoni murakkab, betartib va parchalangan deb hisoblaydilar. Natijada matnda yagona talqin yoki yagona xabar mavjud boʻlmaydi; aksincha, bir nechta maʼnolar yuzaga keladi.

Fragmentatsiya bu postmodern usuli hisoblanadi va u yordamida yozuvchilar murakkab, koʻp maʼnoli va chuqur mazmunga ega asarlar yaratishlari mumkin. Shu bois postmodern adabiyot vositalarini oʻrganish ularning ahamiyatini va murakkab hamda betartib postmodern dunyoga munosabat bildirishdagi rolini ochib beradi. Postmodern adabiyot elementlarini va ularning taʼsirini anglash esa adabiyotshunoslik sohasida yangi yutuqlarga yoʻl ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qoʻchqorov, Oʻzbek romanchiligi taraqqiyoti. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2001, B 67-69
2. Bertens, Hans. *The Idea of the Postmodern: A History*. Buyuk Britaniya, Taylor and Francis press, 2003, B 46-51
3. *Discontinuity and Fragmentation*. Germany, Brill, 2023, P 34
4. Mamajonov M. *Oʻzbek adabiyotida realizm anʼanalari*. – Toshkent: Fan, 2003, B 6
5. R. Federman, *Surfiction: Fiction Now and Tomorrow*. Gretsiya, Swallow Press, 1975, B 86
6. V. Winter, Rebecca. *Reading Fragments and Fragmentation in Modernist Literature*. Buyuk Britaniya, Sussex Academic Press, 2018.